

**MUMTOZ ADABIYOTDA OBRAZ YARATISH MASALASI**

Nizomiddinova Ma'sudaxon Abdumo'min qizi.

FarDU 1-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: *Mazkur maqola klassik adabiyotimizda qahramon yaratishda nimalarga ahamiyat berilganligi, uning ichki va tashqi dunyosining xususiyatlari, xulqi, ruhiyati kabi masalalar tadqiqiga bag'ishlangan. Fikrlarni dalillashda Alisher Navoiyning ijodiy merosidan foydalanilgan.*

Kalit so'zlar: *Obraz, ruhiyat, xarakter, qadriyat, ramz, e'tiqod, tasvir.*

АННОТАЦИЯ: *Данная статья посвящена исследованию таких вопросов, как то, что важно в создании героя в нашей классической литературе, особенности его внутреннего и внешнего мира, поведения и психики. Для обоснования идей было использовано творческое наследие Алишера Навои.*

Ключевые слова: *Образ, дух, характер, ценность, символ, вера.*

ABSTRACT: *This article is devoted to the study of issues such as the importance attached to the creation of a hero in our classical literature, the characteristics of his inner and outer world, behavior, and psyche. The creative heritage of Alisher Navoi is used to substantiate the ideas.*

Key words: *Image, spirit, character, value, symbol, belief, image.*

Har bir badiiy adabiyot namunasida voqealarni bir-biriga ulovchi, yozuvchining istak va niyatlarini amalga oshiruvchi ishtirokchilar mavjud bo'ladi. Bu ishtirokchilar badiiy obraz bo'lib, asar sujetini harakatlantiruvchi asosiy vosita hamdir. Har bir asar obrazi asarning oddiy ishtirokchisi, asar qahramoni, yoki asar bosh qahramoni bo'lishi mumkin. Badiiy asarning asosi hisoblangan obraz va obrazlilik terminlariga doir turli qarashlar quyidagicha tahlil qilinadi: «Obraz» (yunoncha eydos – ko'rinish, manzara) bu tashqi ko'rinish, predmet va narsaning qiyofasi ma'nosini anglatadi. Shu bilan birga predmet va narsaning mohiyati, g'oyasi,



ichki mazmuni tushunchalarini ham o'zida tashiydi. Keyinchalik bu ikki mohiyat o'zaro birlashib, aks ettirish ma'nosiga kelgan. Yunon olimi Platon uchun obraz real dunyoning adabiy aksi bo'lsa, Aristotel uni «mimesis» nazariyasi, ya'ni taqlid orqali tushuntirgan. “Литературный энциклопедический словарь” da obraz mohiyatiga tarixiy nuqtai nazardan yondashilib, u haqdagi qator qarashlar keltirilgan: I.Kant obrazni muvofiqlik va mos kelish, fikr va tuyg'uning uyg'unligi («сочетание и согласие», «чувственность и рассудок») sifatida e'tirof etgan. Shelling talqinida esa, obraz real va ideal, borliq va g'oya, tugallanganlik va hududsizlik tushunchalarini o'zida birlashtirgan.¹

Gegelning “Estetika” asarida bu termin ancha keng talqin qilingan bo'lib, “Biz poetik tafakkurni obrazli tasavvur qilamiz. Obrazni estetik reallik, badiiy me'yor, g'oya, umumiylik, originallik hamda, mazmun va shaklning dialektik birligi sifatida tushunamiz”², deb yozadi.

Obraz deganda, biz odatda muayyan bir inson shaxsi yoki ijtimoiy hodisaning ijodkorlar tomonidan qayta ishlangani nazarda tutib kelingan. U tasavvurdagi shaxs yoki jamiyatni real shaxslar va mavjud jamiyatdan yuqori qo'yish, ya'ni badiiy maketini yaratish bilan bog'liq. Aslida ham inson shunday, hamisha o'z olamida yaratgan orzu-istak sari intiladi. Bir so'z bilan aytganda, orzu istaklar, ideallar asli qadriyatlar bilan bog'liq bo'lib, poetik obraz uning obyektidagi in'ikosi tarzida yuzaga keladi.

O'zbek mumtoz adabiyotida obraz masalasi muhim o'rin tutadi, chunki bu adabiyotda qahramonlar va ularning ichki dunyosi, xulq-atvori va hayotiy holati juda chuqur tasvirlanadi. Obrazlar orqali nafaqat insonning tashqi ko'rinishi, balki uning ruhiy holati, ichki konfliktlari, axloqiy va ijtimoiy qarashlari ham o'rganiladi. Mumtoz adabiyotda tasvirlangan obrazlar ko'pincha ideal yoki qarama-qarshi ikki xil xususiyatni o'zida mujassam etadi, masalan, yaxshilik va yomonlik, samimiylik va ikir-chikirlik, rahm-shafqat va qasoskorlik. O'zbek mumtoz adabiyotida obrazning asosiy jihatlari:

¹ Литературный энциклопедический словарь. - М.: СЭ, 1987. - С. 255.

² Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике / Введение в литературоведение. Хрестоматия. Сост. Николаев П.А., Эсалнек А.Я. - М.: Высшая школа, 2006. - С. 8



1. Ichki dunyo va hissiyotlar: O'zbek adabiyotining mumtoz namunalarida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy holatlari ko'plab asarlarda markaziy o'rin tutadi. Bu tasvirlash usuli o'ziga xos bo'lib, qahramonlar o'zlarining his-tuyg'ulari, ichki kurashlari orqali o'zgarib boradi.

2. Qahramonlar va ularning qadriyatlari: Mumtoz adabiyotda, masalan, Alisher Navoiy, Mashrab, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi adiblar o'z asarlarida zamonning murakkab ijtimoiy, ma'naviy va axloqiy sharoitlarini ko'rsatganlar. Qahramonlar ko'pincha o'z xalqining, madaniyatining, axloqining muhofazachisi sifatida tasvirlanadi.

3. Ramziy obrazlar: O'zbek mumtoz adabiyotida ko'plab ramziy obrazlar mavjud. Ular nafaqat tashqi ko'rinish bilan, balki chuqur ma'nolarni anglatadi. Masalan, "Xamsa" asaridagi obrazlar ko'pincha shaxsiy fazilatlarni yoki **ma'naviy** qadriyatlarni ifodalaydi.

4. Jahon va ijtimoiy tasvir: Obrazlar orqali, shaxsning o'z ijtimoiy roli va jamiyatdagi o'rnini ko'rsatiladi. Alisher Navoiy yoki Mirzo Ulug'bekning asarlarida ko'plab obrazlar orqali ilm, adolat, haqiqiy sevgi, vatanparvarlik kabi qadriyatlar o'rganiladi.

5. Obrazning o'zgarishi va rivoji: Mumtoz adabiyotda qahramonlarning hayoti, ularning ijtimoiy va ma'naviy o'sishi ko'rsatiladi. Bunday o'zgarishlar asar davomida kuzatiladi, bu esa qahramonlarning ichki dunyosini va ularning qiyinchiliklarga qarshi kurashini yanada chuqurlashtiradi.

Umuman olganda, O'zbek mumtoz adabiyotida obrazlar nafaqat tashqi ko'rinish yoki harakatlar bilan belgilanishi, balki shaxsiy va ma'naviy olamning keng va murakkab ifodasi sifatida ham ko'riladi.

O'zbek mumtoz adabiyotida an'anaviy obrazlar asosan xalqning tarixi, qadriyatlari, va e'tiqodlari bilan bog'liq **bo'lib**, ularning ko'plari bir qator she'rlar, dostonlar va hikoyalar orqali namoyon bo'ladi. An'anaviy obrazlardan biri yor obrazidir. Yor (Sevgi obrazi) – mumtoz adabiyotda yor, ya'ni sevgan ayol, go'zal va maftunkor bir yaratiq sifatida aks etadi. Bu obraz nafaqat sevgi, balki fidoyilik va ma'naviyat ramzi sifatida tasvirlanadi. Masalan, Alisher Navoiy va boshqa



ijodkorlarning asarlarida yor idealizatsiya qilingan. “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Sabba’i sayyor” dostonlaridagi Shirin, Layli, Dilorom yor obrazlardir. Keyingi obraz esa insonning ichki dunyosi sanaladi, ya’ni insonning ma’naviy kuchini ifodalovchi obraz. Bu obraz o'zbek mumtoz adabiyotida odamning orzulari, yuksak maqsadlari va ruhiy kuchini simvolik tarzda aks ettiradi. Masalan, Farhod, Iskandar obrazlari. Odam (Odam a.s. hamda mukammal inson orzusi) o‘z ichida barcha ijtimoiy va ma’naviy jihatlarni birlashtirgan figura sifatida tasvirlanadi. Ushbu obraz ko‘pincha ma’rifat va hikmatga oshno, odil va murosali shaxs sifatida ko‘rsatiladi. Keyingi obraz ilm egasi, olim obrazidir. Shayx, ulamo yoki ilm egasi – o‘zbek mumtoz adabiyotida ilm-fan va ma’rifatni targ‘ib qiluvchi, yuksak axloqiy qadriyatlarni ifodalovchi obrazlar sanaladi. Shayxlar yoki ulamo obrazlari odatda aql va hikmatni, e’tiqod va adolatni simvallashtiradi. Masalan, Boniy, Moniy, Qoran, Suqrot obrazlari. Bundan tashqari, oshiq obrazi ham mavjud bo‘lib, u yor vasliga yetishish yo‘lida zahmat chekuvchi inson sifatida gavdalanadi. Masalan, Farhod, Majnun obrazlari. Tasavvufiy jihatdan olib qaraganda Alloh vasliga, jannat ahli bo‘lishga erishish uchun odamzot doimo harakat qilishi, bu yo‘ldagi azob-uqubatlarga bardosh berishi kerak. Yana raqib obraz ham mavjud bo‘lib, bu yor va oshiq o‘rtasidagi sevgiga qarshi inson yoki bir maqsad yo‘lida bir-biriga dushman bo‘lgan insonni anglatadi. Tasavvuf jihatidan esa Alloh vasliga erishish yo‘lidagi g‘ovlar, to‘siqlar raqib obrazi vositasida gavdalandiriladi. Misol uchun Farhodga qarshi Xusrav, Majnunga qarshi ota-ona obrazlari. Bu obrazlar o‘zbek mumtoz adabiyotida, asosan, she’riy va doston janrlarida, mualliflarning ijtimoiy, ma’naviy va madaniy qadriyatlarini yoritishda muhim o‘rin tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Литературный энциклопедический словарь. - М.: СЭ, 1987.
2. Гегель Г.В.Ф. Лекции по эстетике / Введение в литературоведение. Хрестоматия. Сост. Николаев П.А., Эсалнек А.Я. - М.: Высшая школа, 2006.
3. Раҳимжонов Н. Бугуннинг қаҳрамони ким? // Ўзбек адабий танқиди, Антология, Т.: 2011.
4. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. - T.: Fan, 2007.
5. Karimov H.U. Badiiy adabiyotda obraz va obrazlilik. T.: O‘zbekiston, 1984.